



**N.Mamasoliyeva**

Qo'qon shahar kasb-hunar  
maktabi kimyo fani o'qituvchisi.

Ekologiya va atrof-muhitni asrash bo'yicha sa'y-  
harakatlarimizni, xususan, "Yashil makon"  
umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarimizni  
kuchaytiramiz.

**Sh.Mirziyoyev.**

2023-yildagi ustuvor yo'nalishlar, to'rtinchi yo'nalish- ekologiya, ayniqsa, suv masalalari global muammoga aylanib borayotgani bilan bog'liq. Biz nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarni ham o'ylashimiz shart, bu muammolar har bir kishini o'ylatadi, har birimizga ma'suliyat yuklaydi.

Hozirgi fan-texnika rivojlanishi davrida ishlab chiqarishning har qanday o'sishi atrof-muhitning yanada ifloslanishiga olib kelmoqda. Tashqi –muhitning asosiy ifloslantiruvchi manbalari- simob konlari, toshko'mir yoqilishi, sement ishlab chiqarish, oxak kuydirish, neft maxsulotlari, avtomobil sanoati va boshqalardir.

Endilikda neft, ko'mir, gaz singari energiya manbalari o'rniga ekologik toza suv, shamol va quyosh energiyasidan foydalanish davr talablaridan biri bo'lib kelmoqda.

Ta'lim va tarbiya bir-biriga o'zaro aloqador va uzviy bog'liq bo'lgan, chegara va to'siq bo'lishi mumkin bo'lmagan tushunchalardir.

Yosh avlodga ekologik ta'lim va tarbiya berish juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bu murakkab va hozirgi davrning dolzarb muammosini hal qilish barcha pedagoglar zimmasiga ko'roq ma'suliyat yuklaydi. Bu ma'suliyatli vazifani bajarishda yosh avlodga berilayotgan ekologik ta'lim va tarbiyaning mazmuni hamda uni amalga oshirish usullariga ko'proq e'tibor berish kerak.

Ekologik tarbiyaning maqsadi – odamlarda, ayniqsa yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik ma'daniyat- bu faqat tabiatga zarar yetkazmaslik emas, balki uning yanada go'zallashuvi, gullab yashnashi uchun hissa qo'shish, unga zarar yetkazuvchilarga qarshi kurash olib borish hamdir.



Shuningdek yoshlarda ekologik tushunchani, madaniyatni shakllantirish o'qituvchining pedagogik mahoratiga, dars davomida qo'llayotgan uslublariga, materialni qanchalik o'zlashtirilganligiga va boshqa omillariga bog'liq. Pedagoglar ekologik tarbiyani har bir darsda berib borib, uni amalda darsdan tashqari ishlarda mustahkamlashga erishishlari darkor.

Ekologik tarbiya kopchilik uchun oddiy sanalgan illatlarning oldini olishdan boshlanadi. Bunga birgina misol qilib, xazon yoqishni keltirish mumkin. Xazon yonganda havoda turli vodorod sulfid gazi, oltingugurt oksidlari hosil bo'ladi. Xazon tarkibidagi 1 gramm uglevod yonganda tabiatga 350 gramm karbonad angidrid gazi tarqaladi. Bu esa havо tarkibining ifloslanishiga sabab bo'ladi.

Yosh avlodga ekologik ta'lim va tarbiya berish orqali, ularda zamonaviy ekologik tafakkurni shakllantirish, yuksak ekologik madaniyatni tarkib toptirish kabi natijalarga erishiladi. Atrof-muhitning pokiza saqlanishiga o'z xissangizni qo'shish bilan jamiyatga ham katta naf keltirishingiz turgan gap! Bu savobli ishdan chetda qolmang.